

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “SHOSHILGANIMDA
HAM VISOLGA XUSHBAXT...” SHE’RI BADIY TAHLILI**

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O’zbekiston Davlat Jahon tillar

Universiteti ingliz filologiyasi Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr arkadevich Faynberg o’zbek adabiyoti sahnasida inson ruhiyatining eng nozik xususiyatlari va murakkab, ziddiyatli jihatlarini yangicha, ijodkorning faqat o’zigagina xos bo’lgan badiiy uslub vositasida ochib bergan va shu fazilati tufayli millionlab o’quvchilar qalbidan aslo o’chmaydigan joy egallagan ijodkorlardan biri sanaladi. Uning she’rlarida inson qalbining eng nafis, nozik tuyg’ulari, sirli kechinmalari, hayotning chiroyi va murakkabliklari, shuningdek, inson hissiyotlarining samodek cheksiz, oxiri yo’qligi tasvirlanadi. Faynberg ijodiyot yo’lida insonning ichkarisida, yuragida yashirin dunyo, atrofidagi boshqa insonlarga qiladigan muomalasi, ular bilan hissiy jihatdan qanday bog’lanishi va uni o’rab turgan tabiat bilan munosabati tasviri asosiy keng tarqalgan mavzular sirasiga kiradi. Mana shu tasvirlar uning asarlariga nafaqat badiiy ruh kirgizadi, balki ularning falsafiylik darajasini oshirib, o’quvchini o’z hayotini boshdan sarhisob qilishga undaydigan haqiqiy tarbiyaviy adabiy parcha yaralishiga sabab bo’ladi. Shoir ijodining eng asosiy xususiyatlaridan biri-bu insonga va uning ruhiy dunyosiga chuqur e’tibor. Faynberg she’rlari boshqalarning baxt va g’amini o’z boshidan kechayotgandek chuqur his qilish, ularning quvonchi va qayg’usiga sherik bo’lish tuyg’usini berish orqali o’quvchi ko’ngliga yaqin va hissiy bardamlik baxshida etadi. Shu bilan birga uning asarlarida tabiat va ona Vatanga bo’lgan muhabbat, begonalik va birgalikda yashash, inson bolasining olamdagi o’rni kabi tushunchalar falsafiy jihatdan ochib beriladi. Faynbergning Ijodiy merosi boy va rang-barang. Uning butun dunyoda shuhrat qozongan she’rlari- “Visol va G’am”, “Bo’ron jaranglaydi yerosti bo’ylab”, “Saodat sohili” va shu kabi boshqa talay asarlari insonning ruhiy kechinmalari, do’stlik va sevgi, begonalik va ahillik mavzularini o’zida jamlagan. Har bir asarida mavzusidan qat’iy nazar badiiy tasvir, ritm va ohang uyg’unligi, metafora va obrazlar qo’llash orqali kitobxonlarni hayotiy va hissiy tajribaga chorlaydi. Aleksandr Faynberg tomonidan yozilgan “Shoshilganimda ham visolga xushbaxt” misralari bilan boshlanuvchi she’ri ham xuddi shunday xususiyatlarga ega. Mazkur maqola shoir qalamiga mansub mana shu she’r badiiy tahliliga bag’ishlanadi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is considered one of the creators of Uzbek literature who revealed the most delicate features and complex, contradictory aspects of the human psyche in a new way, using the artistic style that is unique to the

creator, and thanks to this quality, he has occupied an indelible place in the hearts of millions of readers. His poems describe the most exquisite, delicate feelings of the human soul, mysterious experiences, the beauty and complexity of life, as well as the infinite and endless nature of human emotions. The main common themes of Feinberg's creative path include the depiction of the hidden world inside a person, in his heart, his treatment of other people around him, how he emotionally connects with them, and his relationship with the nature that surrounds him. These images not only infuse his works with an artistic spirit, but also increase their philosophical level and lead to the creation of a truly educational literary piece that encourages the reader to take stock of his life from the beginning. One of the most important features of the poet's work is a deep attention to man and his spiritual world. Feinberg's poems, by deeply feeling the happiness and sorrow of others as if he were experiencing them himself, by giving the reader a feeling of sharing their joy and sorrow, give a close and emotional connection. At the same time, in his works, concepts such as love for nature and the Motherland, alienation and coexistence, and the place of a human child in the world are philosophically revealed. Feinberg's creative heritage is rich and diverse. His poems, which have gained fame all over the world - "Wisol and Grief", "The Storm is Singing Underground", "The Shore of Happiness" and many other similar works, contain the themes of human spiritual experiences, friendship and love, alienation and harmony. In each work, regardless of the subject, artistic imagery, rhythm and melody Through its harmony, metaphors, and imagery, it invites readers to a life and emotional experience. The poem by Alexander Feinberg, which begins with the lines "Even in a hurry, I am happy to see you" has similar characteristics. This article is devoted to the artistic analysis of this poem by the poet.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг считается одним из творцов узбекской литературы, который по-новому раскрыл тончайшие черты и сложные, противоречивые аспекты человеческой психики, используя уникальный для него художественный стиль, и благодаря этому качеству занял неизгладимое место в сердцах миллионов читателей. Его стихи описывают самые изысканные, тонкие чувства человеческой души, таинственные переживания, красоту и сложность жизни, а также бесконечную природу человеческих эмоций. Основные общие темы творческого пути Файнберга включают изображение скрытого мира внутри человека, в его сердце, его отношение к окружающим, его эмоциональную связь с ними и его отношение к окружающей природе. Эти образы не только наполняют его произведения художественным духом, но и повышают их философский уровень, приводя к созданию по-настоящему поучительного литературного произведения, побуждающего читателя переосмыслить свою жизнь с самого начала. Одной из важнейших особенностей творчества поэта является глубокое внимание к

человеку и его духовному миру. Стихи Файнберга, глубоко проникаясь счастьем и горем других, словно переживая их лично, дарят читателю ощущение сопереживания их радости и печали, создавая тесную и эмоциональную связь. В то же время, в его произведениях философски раскрываются такие понятия, как любовь к природе и Родине, отчуждение и сосуществование, а также место ребенка в мире. Творческое наследие Файнберга богато и разнообразно. Его стихи, получившие всемирную известность – «Висол и горе», «Буря поет под землей», «Берег счастья» и многие другие подобные произведения – содержат темы духовного опыта человека, дружбы и любви, отчуждения и гармонии. В каждом произведении, независимо от темы, художественная образность, ритм и мелодия, благодаря своей гармонии, метафорам и образности, приглашают читателей к жизненному и эмоциональному опыту. Схожие черты присущи стихотворению Александра Файнберга, начинающемуся со строк «Даже в спешке я рад тебя видеть» (Shoshilganimda ham visolga xushbaxt). Данная статья посвящена художественному анализу этого стихотворения поэта.

Kalit so‘zlar: Aleksandr Faynberg poetikasi, lirik qahramon, inson va olam munosabati, ruhiy-psixologik tahlil, ma’naviy qadriyatlar, badiiy tafakkur, she’riy uslub, estetik ideal, hayot falsafasi, milliy o‘zlik, begonalik fenomeni, empatik lirika, obrazlilik, poetik sintaksis, gumanistik qarash.

Keywords: Poetics of Alexander Feinberg, lyrical hero, relationship between man and the world, spiritual and psychological analysis, spiritual values, artistic thought, poetic style, aesthetic ideal, philosophy of life, national identity, phenomenon of alienation, empathetic lyrics, imagery, poetic syntax, humanistic view.

Ключевые слова: Поэтика Александра Файнберга, лирический герой, взаимоотношения человека и мира, духовно-психологический анализ, духовные ценности, художественная мысль, поэтический стиль, эстетический идеал, философия жизни, национальная идентичность, феномен отчуждения, эмпатическая лирика, образность, поэтический синтаксис, гуманистический взгляд.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Shoshilganimda ham visolga,xushbaxt” she’rida eng go’zal ummuminsoniy qadriyatlar va fazilatlar o’z aksini topadi.Ushbu she’r inson qalbining nozik va teran qatlarigacha kirib borib ochib bergan falsafiy lirikaning benazr namunasi sifatida keng kitobxonlar ommasi orasida tanilgan.Asarda shoir o’z shaxsiy kechinmalari orqali boshqalar dardi bilan yashash,hayotning qadrini tushunish,insonlar o’rtasidagi ko’rinmas ruhiy rishtani his qilish singari g’oyalarni ochib beradi.

Shoshilganimda ham visolga xushbaxt,
Kuylaganimda ham do‘stlar-la sarmast –

Meni tark etmadi birovning dardi,
Birovning g'amidan chekdim uqubat.
Hayotda nogahon xafa bo'lsam gar,
Hasad va xiyonat so'ndirsa shashtim –
Birovning quvonchi ko'nglimni olar,
Yig'lagani qo'ymas birovning baxti.
Notanish yurtdagi tengdosh birodar,
Sening hayotingda axir men hech kim.
Biroq yuragingda mening dardim bor,
His etib yashaysan g'amim, shodligim.
Og'ribdi – yaramiz bizning yagona,
Bizlarni ayirdi nedir umrbod.
Va o'z yurtimizni deymiz begona,
Shaharlarimizni atagaymiz yot.
Hayot esa bitta. Tongda uyg'onmoq
Nasib etavermas hamma odamga.
Biz qanday begona erurmiz mutloq?
Qanday begonamiz axir olamga?

Shu she'rni diqqat bilan o'qigan har bir kishi uning muallifi Faynberg asli o'zi rus bo'lsa ham, ruhi, qalbi o'zbek bo'lganligini e'tirof etadi. Nega deb so'rashingiz mumkin? Asar lirik qahramoni shuqadar, sodday, samimiy, ochiqko'ngil, elim, xalqim deb yashaydigan insonki, u hatto yori bilan ko'rishish uchun shoshilib ketayotgan bo'lsa ham, do'stlari bilan baxtdan sarmast bo'lib yurgan bo'lsa ham boshqalar g'amini, qiyinchiliklari ko'rib, quvonchidan baxtiyor bo'lolmaydi: "Meni tark etmaydi birovning dardi, birovning g'amidan chekdim uqubat". Lirik qahramon sodda va tanti ham, unda baxillikdan asar ham yo'q. Boshqalarning omadini, istiqbolini, baxtli onlarini ko'rsa, o'zini bezovta qilayotgan, qalbini o'rtayotgan dardlarini ham ba tamom yoddan chiqarib yuboradi: "Hayotda nogahon xafa bo'lsam gar, Hasad va xiyonat so'ndirsa shashtim- ,Birovning quvonchi ko'nglimni olar, Yig'lagani qo'ymas birovning baxti." Aynan o'zbek xalqida, insonlarida yuqorida aytilgan oliy umuminsoniy fazilat ko'roq mavjud. Shoir shu yerda tug'ilib o'sgan, shu zaminning milliy ruhi-yu an'analari bilan dunyoning tanigan, uning "men"i shakillanishida o'zbek xalqining roli katta. Shu sababli ham u birovning dardini o'zining dardi, quvonchini o'zining quvonchi deb qabul qiladi. U hasad ko'rsa ham, xiyonat ko'rsa ham bu ishni unga qilganlarga o'zilar kabi javob qaytarmatydi. Buning o'rnini atrofida baxtdan yonayotganlarning baxtiga sherik bo'lib qalbidagi hasratni unutib qo'yadi.

Keyingi qatorlarda shoir birovlariga hamdard bo'lish hissi faqat ma'lum guruh odamlariga emas butun insoniyatga tegishli ekanligini aytadi. Garchi insonlar bir-birlaridan ming, million kilometrlar narida yashasalar-da, ularni bog'lab turuvchi

ma'naviy rishta bor, deya ta'kidlaydi ijodkor. Haqiqatan, biz uzimizdan uzoqlardagi afrikalik insonlarning ochligi, Falastindagilarning urushdan ko'rayotgan talofatlari haqida qancha kuyinib gapiramiz, har duoga qo'l ochganimizda ularga ham omonlik tilaymiz-u, lekin ulardan aqalli bir donasi bilan ham shaxsan tanish emasmiz.

Notanish yurtdagi tengdosh birodar,
Sening hayotingda axir men hech kim.
Biroq yuragingda mening dardim bor,
His etib yashaysan g'amim, shodligim.

She'rda begonalashuv va ajralish motivlari ham ko'rinadi. "O'z yurtimizni deymiz begona" degan fikrni bildirish orqali zamonaviy insonlarda, afsuski, asta sekinlik bilan rivojlanayotga o'z Vatani, uning tarixi haqida bilmaslik muammolariga ishora berib ketadi shoir. Bu misralar boshqa tarafdin inson tabiatiga xos ma'naviy izlanishga, jamiyatda o'z o'rnini qidirishni ham ifodalashi mumkin.

She'rning oxirida berilgan savol falsafiy teranlik ohangini beradi. Bu savollar chorasizlik tufayli kelib chiqmagan, balki kitobxonni dunyoga o'zgacha nigoh bilan qarashga, mushohada bilan ish ko'rishga undaydi. Ijodkor inson va tabiatni bir biridan ajratmaydi, aksincha ular bir butun ekanligini aytadi. Hayot insonga faqat bir marta berilishi, ertaga tongda kimlardir uyg'onib kimlardir uyg'onmasligini eslatish orqali yashayotgan onlarimiz qadrini chuqur his etishimiz lozim ekanligini eslatadi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynberg qalamiga mansub ushbu she'rda insoniy fazilatlar ulug'lanadi, ruhiy uyg'oqlik va ma'naviy pok bo'lishlikka da'vat etiladi. Uning asaosiy g'oyasi insonning chinakam boyligi uning qalbidagi atrofidagi odamlarga bo'lgan mehr-oqibat va g'amxo'rlik hissi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://arm.samdchti.uz/library/download/692>
2. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
4. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
5. www.ziyouz.com — "Aleksandr Faynberg she'riy merosi" rukni ostidagi maqolalar to'plami
6. Ruzikulova M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — "Adabiyot nazariyasi jurnali", №3, 2022.